



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd April, 2025

HERMANN HESSE IJODIDA ROMANTIZM

Axmedova Dilnoza Abdumannonovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada **Hermann Hesse ijodida romantizmni aks etishi tahlil qilingan**. XX asr adabiyoti tahlil qilingan. XX asr adabiyotining manbalaridan biri bo'lgan Hesse o'z asarlarida inson ruhiy olami, ichki izardirob va ma'naviy kamolot mavzulariga e'tibor qaratgan. Tarixdagi shuni ko'rsatadiki, uning romanlarida **tabiat obrazlari, individualizm, falsafiy izlanishlar va san'atga bo'lgan yuksak e'tibor** romantik tafakkurning markaziy gavdalanadi. tomoni, "Siddhartha", "Narziss va Goldmund", "Demian" kabi asarlarda insonning o'zligini anglash, ichki kurash va idealga intilish kabi kuchli romantik adabiyot an'analari bilan bog'liq holda yoritilgan. Maqolada Hesse ijodining falsay va ruhiy stressi, **Sharq va G'ar madaniyatlarining uyg'unligi** kontekstida romantizmning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Hermann Hesse, romantizm, falsafiy tafakkur, individualizm, ruhiy izlanish, tabiat tasviri, san'at, ichki kurash.

Аннотация

В данной статье анализируется отражение романтизма в творчестве Германа Гессе. Анализируется литература XX века. Гессен, один из источников литературы XX века, в своих произведениях сосредоточил внимание на темах человеческой психики, внутреннего страдания и духовной зрелости. История показывает, что в его романах образы природы, индивидуализм, философские исследования и высокое внимание к искусству являются центральным воплощением романтического мышления. С другой стороны, в таких произведениях, как «Сиддхартха», «Нарцисс и Гольдмунд», «Демиан», оно освещается в связи с сильными романтическими литературными традициями, такими как осознание человеческой идентичности, внутренняя борьба и



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd April, 2025

стремление к идеалу. В статье анализируются специфические черты романтизма в контексте психологического и духовного напряжения творчества Гессе, гармонии восточной и западной культур.

Ключевые слова. Герман Гессе, романтизм, философское мышление, индивидуализм, духовный поиск, изображение природы, искусство, внутренняя борьба.

Annotation

This article analyzes the reflection of romanticism in the work of Hermann Hesse. The literature of the 20th century is analyzed. Hesse, one of the sources of 20th century literature, paid attention to the themes of the human spiritual world, inner suffering and spiritual perfection in his works. History shows that in his novels, images of nature, individualism, philosophical research and high attention to art are the central embodiment of romantic thought. side, in works such as "Siddhartha", "Narcissus and Goldmund", "Demian" are illuminated in connection with the strong traditions of romantic literature, such as the understanding of human identity, internal struggle and striving for the ideal. The article analyzes the philosophical and spiritual stress of Hesse's work, the specific features of romanticism in the context of the harmony of Eastern and Western cultures.

Keywords: Hermann Hesse, romanticism, philosophical thought, individualism, spiritual quest, depiction of nature, art, inner struggle.

Hermann Hesse – XX asr adabiyotining eng nufuzli yozuvchilaridan biri bo'lib, uning asarlarida romantizmning muhim unsurlari ko'zga tashlanadi. U inson ruhiy olami, ichki iztirob va ma'naviy kamolot mavzularini chuqur yoritgan. Hesse ijodida romantizm klassik an'analarga asoslangan bo'lib, tabiatga yaqinlik, individualizm va ruhiy izlanish kabi jihatlar bilan ifodalanadi. "Romantizm adabiyoti ham o'z xarakteriga ko'ra Sharqu G'arbgaga birdek tegishlidir. Bunda o'xshashlikning bosh sababi har qanday inson uchun romantik kayfiyat, orzu va xayolotning xosligi



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd April, 2025

bo'lsa, yana bir sababi odamizot hayot yo'lida uchratishi muhaqqaq bo'lgan shaxsiy, maishiy, ijtimoiy vaziyatlarning mavjudligidir"¹.

Romantika, aslida, shunday holatlar ichida shakllanadigan psixologik jarayondir. Inson o'z orzularini hayotda ro'yobga chiqara olmaganda, xayolotga, romantikaga beriladi. U ichki iztirob va ziddiyatlarini shu tariqa yengib o'tishga harakat qiladi hamda xayolida orzu-istikclarini amalga oshiradi. Romantizm psixologiyasining yana bir jihat — “barbod bo'lgan ideallar” bilan bog'liq. Inson bu hayotda o'z idealini topa olmaydi, biroq shu bilan birga, ideal haqida orzu qilishni ham to'xtata olmaydi. Bu ichki jarayon insonning faol hayoti va izlanishlariga turki beradi. Biroq har safar ideallar real hayot shartlari va ijtimoiy talablar ta'sirida barbod bo'lib boradi. Haqiqiy romantik bunday sinovlar va mag'lubiyatlar oldida taslim bo'lmaydigan insondir. Biroq real hayot tashvishlari qarshisida odamning yengilishga mahkumligi romantizmga xos fojiaviylikni yuzaga keltiradi. Axir, qanchalik yengilmas bo'lmasin, inson o'lim oldida ojiz.

Romantizm adabiyotining yorqin vakili bo'l mish H.Hesse asarlarida ham tabiat insonning ma'naviy olamining aks-sadosi sifatida gavdalaniadi. Ayniqsa, “Siddhartha” va “Narziss va Goldmund” romanlarida tabiat obrazlari inson ruhiyatining turli holatlarini tasvirlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, “Siddhartha”da daryo obrazining doimiy takrorlanishi inson hayot yo'lining timsoli sifatida talqin qilinadi:

“Daryo o'z oqimida abadiyatni mujassam etar, uning suvlari o'zgaradi, ammo mohiyati o'zgarmaydi”.

Bu orqali H.Hesse inson hayotining doimiy o'zgaruvchanligi va ruhiy kamolotning uzluksiz jarayon ekanini ifodalaydi. Romantizmda tabiat hayot falsafasi va inson tafakkuri bilan bog'liq hodisa sifatida qaraladi. Hesse tabiatni shunchaki tasvirlash emas, balki uni insoniy ruhiyatning qismiga aylantirish orqali romantik yondashuvni chuqurlashtiradi.

Romantizmning muhim jihatlaridan yana biri – insonning o'zligini anglash yo'lidi kurashidir. H.Hesse qahramonlari o'z yo'lini topish uchun jamiyat qoidalaridan voz kechib, ichki dunyosini tadqiq etishga intiladilar. “Demian” romanida bosh

¹ Jo'raqulov U., Hamroyev K. Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent – 2001. 141 b.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd April, 2025

qahramon Emil Sinclair jamiyat normalariga bo'ysunmay, o'z shaxsiyatini shakllantirishga harakat qiladi:

"Kim bo'lishimni faqat o'zim aniqlay olaman, hech kim menga yo'nalish bera olmaydi".

Bu fikr romantik individualizm tamoyillariga mos kelib, insonning mustaqil o'zligini izlashini aks ettiradi. Hesse individualizmni nafaqat ijtimoiy normalarga qarshi qo'yilgan qarash sifatida, balki insonning ichki tajribalar va ruhiy transformatsiyalar orqali mukammallikka intilishi sifatida talqin qiladi. Uning qahramonlari o'z hayot yo'llarini topish uchun doimiy ravishda o'zlikni anglash va o'zgarish jarayonidan o'tadilar.

H.Hesse romanlarining asosiy xususiyatlaridan biri – falsafiy teranlik va inson ma'naviyatining markaziy o'rinda turishidir. Uning qahramonlari ko'pincha din, san'at va falsafa orqali hayot ma'nosini izlaydilar. "Marjonlar O'yini" romanida Knecht bilim va ma'naviyat o'rtasidagi uyg'unlikni topishga harakat qiladi:

"Haqiqiy bilim faqat tafakkur orqali emas, balki ruhiy tajriba orqali ham anglanadi".

Bu yondashuv G'arb falsafasi va Sharqona ruhiy izlanishlarning uyg'unligini aks ettirib, Hesse ijodidagi romantik jihatlarni yanada yorqinroq namoyon qiladi. Romantik tafakkurda inson hayotining chuqur ma'nosи falsafiy izlanishlar orqali ochiladi. Hesse o'z qahramonlarini falsafiy va ruhiy sinovlardan o'tkazib, ularning hayotiy haqiqatni anglash jarayonini tasvirlaydi. Bu esa romantizmning asosiy tamoyillaridan biri – inson qalbining sirlarini o'rganish tendensiyasini kuchaytiradi. H.Hesse romanlaridagi asosiy qahramonlar odatda juda sezgir, ichki dunyosi boy shaxslar bo'lib, ular san'at va adabiyot orqali o'z his-tuyg'ularini ifodalashga intiladilar. "Narziss va Goldmund" romanida Goldmund hayotni san'at orqali idrok etishga harakat qiladi. Uning haykal yaratish san'ati inson ruhi va uning go'zallikka bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi:

"San'at – bu abadiyatga daxldor bo'lishga urinishdir."

Bu fikr romantik qarashlarga mos tushib, Hesse qahramonlarining san'atga bo'lgan yuksak e'tiborini aks ettiradi. Romantizmda san'at nafaqat ijodiy faoliyat, balki inson ruhiyatining chuqur ifodasi sifatida qaraladi. Hesse asarlarida san'at yaratish jarayoni insonning o'zligini anglash yo'lida eng muhim vositalardan biri sifatida talqin qilinadi.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd April, 2025

Hermann Hesse ijodi romantik an'analar bilan chuqur bog'liq bo'lib, uning asarlarida individualizm, ma'naviy izlanishlar, tabiat va san'atning inson ruhiy olamidagi o'rni markaziy mavzular sifatida ko'rindi. Yozuvchi inson hayotining mohiyatini, ruhiy o'sish va kamolot jarayonlarini tasvirlashda romantik uslubdan foydalanib, o'z davrining eng falsafiy yozuvchilaridan biriga aylangan. Hesse ijodida romantizm faqat badiiy vosita emas, balki insoniy tajribani anglashning muhim elementi sifatida namoyon bo'ladi.

Hesse romanlari romantik g'oyalarni nafaqat estetik jihatdan, balki insonning ichki dunyosini ochib berish vositasi sifatida ham qo'llaydi. U tabiat, san'at va falsafani o'zaro bog'lab, insoniyatning abadiy izlanishlarini yoritib beradi. Uning asarlarida romantizm insonning o'z taqdirini tanlash, ichki ziddiyatlarni yengish va hayotning chuqur ma'nosini anglash vositasi sifatida aks etadi. Shu sababli, Hesse ijodida romantizm faqat badiiy yo'nalish emas, balki insoniy tafakkurning teranlashuvi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Hermann Hesse ijodida romantizm muammolari inson ruhiy olami va ma'naviy izlanishlari orqali chuqur yoritilgan. Uning asarlarida tabiat, san'at, falsafa va ichki ziddiyat kabi inson hayotining murakkabligi va idealga intilish jarayonini aks ettiradi. "Siddhartha" romanida tabiat inson ruhiy olamining aks - sadosi sifatida tasvirlangan bo'lsa, bu kabi elementlar inson hayotining murakkabligi va idealga intilish jarayonini aks ettiradi. "Siddhartha" romanida tabiat inson ruhiy olamining aks-sadosi sifatida tasvirlangansa, "Demian" va "Narziss va Goldmund" asarlarida individualizm va ma'naviy o'sish muhim ahamiyat kasb etadi. Hesse asarlarining asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning Sharq falsafasi va G'arbiy ekzistensializm g'oyalarni uyg'unlashtirgani bo'lib, bu uning romanlaridagi romantik ruhiyatni teran rivojlanishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komilovich, S. S. (2024). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TA'SIR MASALALARI. In Konferensiylar| Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 492-495).



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd April, 2025

2. Komilovich, SS (2023). TOG 'AY MUROD IJODIDA UILYAM FOLKNER ASARLARI TA'SIRI. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqot jurnali , 7 (1), 75-77.
3. SHERQULOV, S. UILYAM FOLKNERNING "OVOZ VA G'azab" PASASINDAGI FOJIYASI. O 'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2022,[1/3 ISSN 2181-7324 .
4. Normurodovna, A. M. (2025, February). TASHKIOTLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 310-317).
5. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISI BO'LISHDA BOSHLANG'ICH INGLIZ TILI DARSLARINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 350-357).
6. Axmedovna, B. S. (2025, February). O'ZBEKISTONDA XORIJUY TILLARNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 326-333).
7. Normurodovna, A. M. (2025, February). INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING INGLIZ TILI KURSIDAGI AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 302-309).
8. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA XORIJUY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH. In International Educators Conference (pp. 358-365).
9. Axmedovna, B. S. (2025, February). INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'ZARO MULOQOTNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 318-325).
10. Boymurotovna, X. N. (2025, March). RUS TILINI O 'RGANISHDA SUN'IY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNING ROLI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 55-62).
11. Normurodovna, M. A. (2025, January). THE IMPORTANCE OF TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 148-156).
12. ABDIRAKHIMOVA, M. (2024). PEDAGOGICAL MECHANISMS OF FORMING THE LINGUA METHODICAL EXPERIENCES ON STUDENTS. News of the NUUz, 1(1.4), 33-36.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd April, 2025

13. Normurodovna, M. A. (2024). INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI: Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, NTM professori vb, xorijiy tillar kafedrasi mudiri, filalogiya fanlar doktori (DSc) Daniyeva Maysara Djamalovna taqrizi ostida. IQRO INDEXING, 9(1), 267-271.
14. Normurodovna, A. M. (2022). LITERATURE AND READING AMONG YOUNG PEOPLE IMPROVING CULTURE AND ITS CHARACTERISTICS.
15. Abdirahimova, M. N. (2017). Learning vocabulary through grammar material. Міжнародний науковий журнал Інтернаука, (3 (2)), 40-41.
16. Normurodovna, M. A. (2025, January). BUILDING VOCABULARY: EFFECTIVE STRATEGIES FOR LEARNERS. In International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health (pp. 4-11).
17. Normurodovna, M. A. (2024). English jargon and slang: The connection between culture and language. Yangi O 'zbekiston ustozlari, 2(31), 74-82.
18. Nurullaev, K. T., Abdirakhimova, M. N., & Khalilova, O. A. (2021). Comparative Analysis of Equivalence of Somatic Phraseological Units in German and Uzbek Languages. International Journal of Early Childhood Special Education, 13(2), 1036-1042.
19. Suyarova, M. E. (2023). USING GAMES TO INCREASE STUDENTS' ATTENTION DURING THE LESSON. Экономика и социум, (10 (113)-1), 252-255.
20. Suyarova, M. (2023). Methods of teaching speaking in foreign language lessons. Scientific Collection «InterConf», (145), 119-124.
21. Suyarova, M. (2023). TEACHER'S ROLE IN THE PROCESS OF MOTIVATING LEARNERS. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(16), 97-99.
22. Ergashevna, S. M. (2022). TECHNOLOGY AND ITS IMPORTANCE IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE SKILLS. International Journal of Pedagogics, 2(11), 01-07.
23. Ergashevna, S. M. (2022). Permanent Learning: Continuing Your Teacher Education. Permanent Learning: Continuing Your Teacher Education, 5(11).



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd April, 2025

24. SUYAROVA, M. E. (2022). Learning English through Electronic Database. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(4), 388-390.
25. Hamzayeva, Z. (2024, May). TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHNING ILG'OR USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 34-36).
26. Qizi, H. Z. M. (2024). WOMEN'S ROLES AND GENDER PORTRAYAL IN THOMAS HARDY'S WORKS. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(57), 344-347.
27. NO, P. The depiction of the new-historical era in Iqbol Mirzo's novel Bonu.
28. Suyarova, M. (2022). EFFECTIVE WAYS TO USE COMMUNICATION TASKS IN SPEECH TEACHING. Scientific Collection «InterConf», (107), 94-100.
29. Suyarova, M., Zulfikarova, Z., & Farmonov, B. (2021). FORMATION OF SCIENTIFIC WORLDWIDE IN YOUNG PEOPLE AND ITS CHARACTERISTICS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 1047-1051.
30. Suyarova, M. E., & Zulfiqorova, Z. A. (2019). TEXT ANALYSIS IN TECHNICAL ENGLISH. Theoretical & Applied Science, (5), 126-128.
31. SUYAROVA, M. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 587-590.
32. Ergashevna, S. M. Technology and its importance in Teaching English Language Skills NTERNATIONAL JOURNAL OF PEDAGOGICS (IJP) Journal Impact Factor.
33. Suyarova, M. Methodological bases for solving creative problems. Modern trends in the development of the agrarian complex.-2016.--S, 1676-1678.
34. SUYAROVA, M. (2024). Internet blogs in teaching foreign languages.
35. Ergashevna, S. M. (2024). Development of Grammatical Skills During Individual Teaching of English at the Intermediate Stage. Miasto Przyszłości, 294-296.
36. Mamashoev, U. U. (2023). EXPRESSION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE IN PHRASEOLOGY WITH THE HEART COMPONENT. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 76-80).